



TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ILMIY TADQIQOTLARI XABARNOMASI

ILMIY-USLUBIY JURNAL
ISSN 2992-9016

№1/2026

Muassis:
TERMIZ IQTISODIYOT VA
SERVIS UNIVERSITETI

TISU ilmiy tadqiqotlari xabarnomasi

Ilmiy-uslubiy jurnal

Bosh muharrir:

Sattarov Abdusamat
Umurqulovich

Bosh muharrir o'rinbosari:

Qobulov Eshbolta Atamuratovich

Mas'ul kotib:

Turayev Baxtiyor Ergashevich

Dizayner:

Meyliqulov Shahboz
Xolmamatovich

**Jurnal bir yilda to'rt marotaba
nashr etiladi**

Jurnal O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining 2023-yil 1-martdagi № 066379-raqamli guvohnomasi bilan ro'yxatga olingan va O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 8-maydagi 370/5-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan hamda iqtisodiyot fanlari bo'yicha dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal "Termiz Publishing center" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.

Bosishga ruxsat etildi:

22.12. 2025.

Qog'oz bichimi: 60x84 1/8

"Times New Roman" garnituruasi.

Ofset bosma.

Ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i: 11.

Adadi 100 nusxa.

Bahosi kelishilgan narxda.

Buyurtma № 4.

Jurnalning elektron shakli bilan

<https://scientific.tues.uz>

web saytida tanishish mumkin.

Tahririyat manzili:

Termiz sh., "Yulduz" MFY,
"Ibn Sino" ko'chasi, 38B-uy.

TAHRIR HAY'ATI A'ZOLARI:

Ixtisham Ul-Haq – i.f.d., prof. (Pokiston)

L. Narrada Gamage – i.f.d., prof. (Shri Lanka)

Maxmudov N.M. – i.f.d., prof.

Xudoyqulov S.K. – i.f.d., prof.

Pardayev J.M. – i.f.f.d., (PhD).

Absamatov A.E. – i.f.n., dots.

Eshkarayev S.Ch. – k.f.f.d. (PhD), dots.

Ruzmetov B. – i.f.d. prof.

Xudoyqulov X.X. – i.f.d. (DSc), prof.

Abdullayev I.S. – i.f.d., prof.

Xotamov O.Q. – i.f.d., prof.

Otamurodov Sh.N. – i.f.d. (DSc), dots.

Yarmatov Sh. Ch. - i.f.f.d. (PhD).

Mamadjanova T.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Shodiyev A.A. – i.f.f.d. (PhD).

Jurayev X.A. – i.f.f.d. (PhD), dots.

Xakimov Z.I. – i.f.f.d. (PhD).

Amonov M.O. – i.f.f.d. (PhD).

Absamatov A.E. - i.f.f.d. (PhD).

Rahmatullayev B.Ch. – i.f.f.d. (PhD).

Namozov G'.Sh. – i.f.f.d. (PhD).

MUNDARIJA

SH.E.BOBOMURATOVA

O'zbekiston va uning chegara mamlakat hududlarida til siyosati.....4

D.MUQUMOVA

Ja'far Muhammad Termiziyning "Mendagi Boysun" she'ri: lingvistik tahlil.....12

D.B.IBODULLAYEVA

O'zbek va ingliz tillaridagi teatr atamalarining chog'ishtirma tahlili.....15

Z.M.AMIRKULOVA

"Panoh" hikoyasida tarixiy voqelik va badiiy talqin uyg'unlashuvi.....18

M.A.MEYLIQULOVA

O'quvchilarda adabiy nutqiy kompetensiyani rivojlantirish masalalari.....22

SH.A.DONAYEVA

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qitishda 4K modelining ahamiyati.....25

G.E.TURAYEVA

Texnologiyalashgan jamiyatda bo'lajak o'qituvchilarning axloqiy tarbiyasini shakllantirish28

M.X.XAYDAROVA

Magistratura talabalarining mustaqil ta'lim faoliyatini tashkil etish.....31

F.A.XAYITOVA

O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishning milliy va jahon tajribasi.....35

D.R.YUNUSOV, J.I.UMIROV

Fanni o'qitishda interfaol ta'lim metodlaridan foydalanish.....38

F.E.JOMONQULOVA, S.B.UZAKOVA

Yoshlarni axborot xurujlaridan asrash, ularda axborot imunitetini shakllantirishda zamonaviy usullardan foydalanishning o'рни.....42

U.A.TASHBAYEVA

Boshlang'ich sinflarda bolalar adabiyotini o'rgatishda mustaqil ta'lim topshiriqlaridan foydalanish metodikasi.....47

SH.T.TOSHOVA

Talabalarda sog'lom turmush tarzi ko'nikmalarini takomillashtirishning didaktik imkoniyatlari.....51

R.I.ESONOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Boshlang'ich sinflarda tabiiy fanlarni 4K modeli asosida tashkil etish metodikasi va baholash mexanizmlari.....54

G.Z.ERMATOVA, G.E.TURAYEVA

Elektron resurslar asosida ona tili va o'qish savodxonligi fanlarini o'qitish samaradorligini oshirish usullari.....58

D.D.NORQUVATOVA, N.M.SALOXITDINOVA

STEAM yondashuvining boshlang'ich matematika ta'limidagi ahamiyati.....65

M.O.ZARIPOVA, N.M.SALOXITDINOVA

Zamonaviy ta'limda baholash tizimlarining transformatsiyasi va uning ta'lim sifatiga ta'siri.....68

M.A.NORBOSHEVA, N.ABDIYEVA


Giperaktiv bolalar bilan olib boriladigan psixologik-pedagogik ishlar.....72

G.A.MAMARAJABOV

Mustaqillik yillarida o'zbekistonda hunarmandchilikni rivojlantirishning huquqiy asoslari va amaliy tajriba.....76

T.J.YARMATOV, F.J. YARMATOV

Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu Lug'atit Turk" asari etnofolklor manba.....80



Termiz iqtisodiyot va servis universiteti
“Boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrası dotsent vazifasini bajaruvchi
Pedagogika fanlari falsafa doktori(PhD)
Xayitova Fıruza Abdullayevna
E-mail: firuza_xayitova@tues.uz

O‘QUVCHILARDA KREATIV O‘QISH MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING MILLIY VA JAHON TAJRIBASI

ANNOTATSIYA.

Ushbu maqolada o‘quvchilar orasida kreativ o‘qish madaniyatini rivojlantirishning pedagogik va psixologik asoslari, milliy ta‘lim tizimidagi yondashuvlar hamda jahon amaliyotida shakllangan ilg‘or tajribalar tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida kreativ o‘qish jarayonining mazmuni, o‘qish madaniyatiga ta‘sir etuvchi omillar, kreativ tafakkurni faollashtiruvchi metodlar hamda o‘qituvchi faoliyatining o‘rni yoritilgan. Natijada o‘quvchilarda mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va matn bilan ijodiy ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik takliflar ishlab chiqildi.

Tayanch so‘zlar: Kreativ o‘qish, o‘qish madaniyati, kompetensiya, refleksiya, ta‘lim texnologiyalari, o‘quvchi faoliyati, xalqaro tajriba.

НАЦИОНАЛЬНЫЙ И МИРОВОЙ ОПЫТ ФОРМИРОВАНИЯ КУЛЬТУРЫ КРЕАТИВНОГО ЧТЕНИЯ У УЧАЩИХСЯ

АННОТАЦИЯ

В данной статье анализируются педагогические и психологические основы развития культуры креативного чтения среди учащихся, подходы в национальной системе образования, а также передовой международный опыт. В ходе исследования раскрыты содержание процесса креативного чтения, факторы, влияющие на культуру чтения, методы активизации креативного мышления и роль деятельности учителя. В результате разработаны педагогические рекомендации, направленные на развитие у учащихся навыков самостоятельного мышления, аналитического подхода и творческой работы с текстом.

Ключевые слова: креативное чтение, культура чтения, компетенция, рефлексия, образовательные технологии, деятельность учащихся, международный опыт.

NATIONAL AND GLOBAL EXPERIENCE IN FORMING A CULTURE OF CREATIVE READING IN STUDENTS

ABSTRACT

This article analyzes the pedagogical and psychological foundations of developing a culture of creative reading among students, the approaches used in the national education system, and advanced practices formed in global educational experience. The study highlights the essence of the creative reading process, factors influencing reading culture, methods that stimulate creative thinking, and the role of the teacher’s activity. As a result, pedagogical recommendations were developed to enhance students’ skills in independent thinking, analytical approach, and creative interaction with texts.

Keywords: creative reading, reading culture, competence, reflection, educational technologies, student activity, international experience.

KIRISH

Globalashuv sharoitida ta‘lim tizimining eng muhim vazifalaridan biri o‘quvchilarda mustaqil, tanqidiy va kreativ fikrlash ko‘nikmalarini shakllantirishdan iborat. Bu jarayonning asosiy vositalaridan biri kreativ o‘qish madaniyatidir, ya‘ni matn shunchaki tushunish emas, balki uning g‘oyaviy mazmunini tahlil qilish, talqin qilish, shaxsiy fikrni shakllantirish

va uni hayotiy faoliyatga tatbiq etish qobiliyatidir. So‘nggi yillarda xalqaro tadqiqotlar ham shuni ko‘rsatmoqdaki, o‘qish jarayonida kreativ yondashuv o‘quvchilarning tafakkur darajasi, kommunikativ savodxonligi, shaxsiy motivatsiyasi va o‘qishga bo‘lgan ichki ehtiyojini kuchaytiradi. Shu sababli, O‘zbekiston ta‘lim tizimida ham kreativ o‘qish madaniyatini rivojlantirish davlat dasturlari, o‘quv standartlari

va metodik qo'llanmalarda alohida yo'nalish sifatida belgilangan.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, ko'plab maktab o'quvchilarida o'qish jarayoni hali ham reproduktiv xarakterda bo'lib, matnlar bilan ishlash odatda eslab qolish va qayta hikoya qilish darajasida cheklanadi. Bunday yondashuv esa kreativ fikrlashni cheklaydi va innovatsion tafakkurning shakllanishini sekinlashtiradi.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda quyidagi usullardan foydalanildi:

- Taqqoslama tahlil metodi – O'zbekiston va xorijiy davlatlar tajribalarini solishtirishda.
- Kontent-tahlil – ilmiy maqolalar, dasturlar, metodik qo'llanmalar o'rganildi.
- Pedagogik kuzatuv va suhbat – maktab o'qituvchilari va o'quvchilarning real o'qish jarayonlariga oid kuzatishlar asos qilib olindi.
- Refleksiv tahlil – kreativ tafakkurni shakllantiruvchi metodlarning o'quvchiga psixologik ta'siri tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. O'quvchilarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirishni samarali tashkil etish uchun, avvalo, ushbu jarayonning mazmun-mohiyatini aniq anglab olish zarur. Kreativ o'qish oddiy o'qish jarayonidan tubdan farq qiladi. Oddiy o'qish ko'proq axborotni qabul qilish va mazmunni tushunish darajasi bilan chegaralansa, kreativ o'qish o'quvchining matnga faol munosabatda bo'lishini, unda aks etgan g'oyalarni qayta ishlashni, baholashni, alternativ talqinlar yaratishni o'z ichiga oladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, kreativ o'qish jarayoni o'quvchidan nafaqat reproduktiv faoliyatni, balki refleksiv va ijodiy tafakkurni talab etadi. Vygotskiy ta'kidlaganidek, ijodiy tafakkurni rivojlantirish uchun shaxs ongida tasavvurlar, assotsiatsiyalar va hayotiy kuzatuvlar birlashishi kerak, matn esa ushbu jarayon uchun katalizator vazifasini bajaradi [2].

O'quvchilar o'qish jarayonida matnning asosiy ma'nosini anglash bilanoq o'qish tugamaydi. Aksincha, kreativ o'qishda matn bilan ishlash jarayonlari davom ettiriladi: matn ichidagi yashirin ma'no qatlamlari ochiladi, mualliflik pozitsiyasi baholanadi, matnda qo'llangan badiiy vositalar, intertekstual murojaatlar, obrazlar tizimi tushuntiriladi, shuningdek, o'quvchining shaxsiy hayotiy tajribasi bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, mazkur jarayon o'quvchining tanqidiy fikrlash, mustaqil qaror qabul qilish, mulohaza yuritish, savol qo'yish va muloqotga kirisha olish qobiliyatlarini

faollashtiradi [1].

O'zbekiston ta'lim tizimida o'qish madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan dasturiy ishlanmalar, davlat ta'lim standartlari va metodik ko'rsatmalar mavjud bo'lsa-da, amaliy jarayon bir qator muammolarni ko'rsatmoqda. Xususan, umumta'lim maktablarida o'qish darslarida dars jarayoni ko'pincha matn mazmunini qayta hikoya qilish va savollarga javob berish formatida tashkil etiladi. Bu esa o'quvchilarni matn bilan chuqur ishlash, mulohaza bildirish va ijodiy tahlil qilishga yetarlicha yo'naltirmaydi. Darslarda o'quvchi tomonidan matnga savol qo'yish, muhokama, bahs-munozara, ijodiy talqin, personajlarni qayta ifodalash, matn asosida yangi g'oya yaratish singari faol jarayonlar kam uchraydi. Shuningdek, baholash mezonlarining ko'proq faktlarni eslab qolishga qaratilgani ham ijodiy o'qishni rag'batlantirmaydi.

Kreativ o'qish madaniyatini rivojlantirish uchun o'qituvchi metodik tayyorgarligi ham muhim omil hisoblanadi. Ko'plab o'qituvchilar badiiy yoki informatsion matn ustida ijodiy ishlash uslublarini yaxshi bilishsa ham, ularni dars jarayonida tizimli qo'llashda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Natijada matn asosida savol va topshiriqlar ko'proq reproduktiv darajada shakllanadi, o'quvchilar esa tayyor javoblarni kutadigan passiv qabul qiluvchiga aylanib qoladi. Bu esa kreativ o'qishning mohiyatini — o'quvchining matn bilan mustaqil intellektual muloqotini — cheklaydi.

Shu bilan birga, o'quvchilarning o'qish motivatsiyasi ham kreativ o'qish madaniyatining shakllanishiga ta'sir qiluvchi asosiy omillardan biridir. O'qishga bo'lgan ichki ehtiyoj o'quvchi ongida qiziqish, intilish va o'qishdan zavq olish bilan bog'liq bo'lib, u oilaviy muhit, maktab madaniyati va tengdoshlar guruhi orqali shakllanadi. Oilalarda kitobxonlik an'analarning zaifligi, raqamli axborot oqimining keskin ko'payishi, ijtimoiy tarmoqlarning o'quvchilar vaqtini ko'p egallashi o'qishga bo'lgan qiziqishning pasayishiga olib kelayotgan omillardan biri sifatida qayd etiladi. Shu nuqtai nazardan, kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish faqat maktab ichida emas, balki oilaviy va jamiyat miqyosida ham kompleks yondashuvni talab qiladi.

Xalqaro tajribaga murojaat qilinganda, rivojlangan davlatlar ta'lim tizimida kreativ o'qish madaniyatini rivojlantirish o'quv jarayonining markaziy bo'g'ini sifatida qaraladi. Misol tariqasida, Finlandiyada o'quvchilar matn ustida

ishlash jarayonida muammoli vaziyat yaratish orqali matndan yangi mazmun hosil qilishga yo'naltiriladi [3]. Bunday yondashuvda o'qish jarayoni o'quvchining kuzatuvchanligi, qiyoslash, analogiya yaratish, sabab-oqibat bog'lanishini izohlash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Kanada ta'lim tizimida esa "Reader's Workshop" modeli qo'llaniladi. Bu modelda har bir o'quvchi o'zining o'qish tezligi, qiziqish sohasi va o'quv tajribasiga mos ravishda mustaqil o'qish yo'lini shakllantiradi, o'qituvchi esa faqat yo'naltiruvchi va muloqot tashkilotchisi sifatida qatnashadi [4]. Janubiy Koreya ta'lim amaliyotida esa o'quvchilar guruhli ijodiy o'qish loyihalariga jalb qilinadi — drama qo'yish, matn asosida vizual kompozitsiya yaratish, o'qilgan asarni kino, grafik hikoya yoki sahna shaklida qayta tasvirlash usullari qo'llanadi [5]. Bu tajribalar shuni ko'rsatadiki, kreativ o'qish madaniyati shaxsning ijodiy o'zini ifoda etish imkoniyatlari keng bo'lgan ta'lim muhiti orqali shakllanadi.

Ushbu tajribalarning tahlili O'zbekiston sharoitida ham qo'llash mumkin bo'lgan bir qator samarali metodlarni ko'rsatadi. Avvalo, darsda matn bilan ishlash jarayonida interfaol metodlarni — klaster, konseptual xarita, sintaktik tahlil, "aqliy hujum", "savol-javob zanjiri", "fikrlar jangi", "rolga kirish", "muallifga maktub yozish" usullarini qo'llash o'quvchilarning matnga nisbatan faol munosabatini kuchaytiradi. Shuningdek, matn asosida ijodiy topshiriqlar — alternativ yakun yaratish, personaj nomidan hikoya qilish, matndan asosiy g'oyani infografika shaklida ifodalash, voqeani boshqa davr yoki makonga ko'chirish kabi mashqlar ijodiy fikrlashni rag'batlantiradi.

Tahlil natijalari ko'rsatdiki, kreativ o'qish madaniyatining shakllanishida eng samarali yondashuv — bu matnni idrok etishning ko'p bosqichli modeli bo'lib, u quyidagicha kechadi:

1. Matnni emotsional idrok etish (birlamchi o'qish).
2. Mazmunni tahlil qilish (asosiy g'oya, obrazlar, muallif pozitsiyasi).
3. Muammoli savollar yaratish va ularga javob izlash.
4. Matnni shaxsiy tajriba bilan bog'lash.
5. Matndan yangi g'oya va kreativ mahsulot yaratish.

Mazkur model o'quvchi tafakkurining chuqurlashuvi, mustaqilligi va ijodiyligi uchun qulay shart-sharoit yaratadi.

Shunday qilib, tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki: kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish ta'lim

jarayonida o'quvchi shaxsining intellektual, ma'naviy va estetik rivojlanishiga xizmat qiluvchi muhim pedagogik jarayondir. Bu jarayon samarali bo'lishi uchun o'qituvchi faoliyati, o'quv dasturlari, dars metodikasi, baholash tizimi, oilaviy va ijtimoiy muhit bir-biri bilan uyg'unlikda ishlashi lozim.

Xulosa va takliflar. Kreativ o'qish madaniyatini rivojlantirish o'quvchilarda ijodiy fikrlash, axborotni qayta ishlash va tahliliy yondashuvni shakllantiradi. Bu jarayon milliy ta'lim tizimida ham dolzarb bo'lib, uni rivojlantirish uchun metodik, tashkiliy va madaniy asoslarni kuchaytirish zarur.

Takliflar:

1. O'qituvchilar uchun kreativ o'qish bo'yicha maxsus malaka oshirish kurslarini tashkil etish.
2. Darslik va o'quv qo'llanmalarni faol, tahliliy savollar bilan boyitish.
3. Maktablarda "Kitobxonlik klublari", "Adabiyot haftaliklari", "Ijodiy o'qish loyihalari" tashkil etish.
4. Oilalarda kitob o'qish an'alarini rag'batlantirish uchun ommaviy ijtimoiy dasturlarni joriy qilish.
5. Kreativ o'qish jarayonida multimedia, raqamli kutubxonalar va interaktiv platformalardan foydalanishni kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- [1] OECD. PISA Reading Framework. Paris, 2019.
- [2] Vygotsky, L.S. Imagination and Creativity in Childhood. MIT Press, Reprint 2020.
- [3] Sahlberg, P. Finnish Lessons 3.0: What Can the World Learn from Educational Change in Finland? Teachers College Press, 2021.
- [4] Calkins, L. The Reading Workshop. Heinemann Publishers, 2020.
- [5] Kim, J. Creative Literacy Education in South Korea. Asian Education Studies Journal, 2021.
- [6] Khaitova, F. A. (2023). Creative approach to forming a culture of learning in primary education. Theoretical aspects in the formation of pedagogical sciences, 2(5), 123-127.
- [7] Хайитова, Ф. А. (2023). Бошланғич синф ўқувчиларининг креатив ўқиш маданиятини шакллантиришда гендер ёндашувдан фойдаланиш. Interpretation and researches, 2(1).
- [8] Хайитова, Ф. А. (2024). Синфдан ташқари ишларда kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda oila va maktab hamkorligining ahamiyati. New article, 1(1), 119-127.
- [9] Хайитова, Ф. А. (2021). Хорижий мамлакатларнинг boshlang'ich sinflarda kreativ o'qish madaniyatini shakllantirish tajribasi. Инновации В Педагогике И Психологии, 4(10).